

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
A.ChO'LPON NOMLI ANDIJON DAVLAT TILLAR
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

INGLIZ TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI


**INGLIZ TILI LEKSIKASI VA STILISTIKASI
KAFEDRASI**

MATNNING LINGVISTIK TAHLILI

FANIDAN MA`RUZA MATNLARI TO`PLAMI

Tuzuvchi: Professor S. R. Rahimov

Katta o`qituvchi D. A. Niyozova



ANDIJON 2007-2008

Ushbu ma`ruza matnlari Institut Ilmiy kengashining 2007 yil dekabr oyidagi qaroriga binoan chop etilmoqda (bayonnoma №5)

Mas`ul muharrir: Filologiya fanlari doktori, professor S. R. Rahimov

MARUZA № 1.

MAVZU: MATNNING LINGVISTIK TAHLILI.

Reja

1. Kirish.
2. Matn tahlili kursining maqsadi va vazifalari.
3. Matn tahlili yoki hermenevtika haqida umumiy tushuncha.
3. Matn tahlili nima?
4. Ma'no va mazmun.
5. Ekstralingvistik situatsiya nima?

TAYANCH IBORALAR:

- 1. Kommunikativ faoliyat**
- 2. Badiiy nutq**
- 3. Obyektiv va subyektiv**
- 4. Badiiy asar**
- 5. Matn lingvistikasi**
- 6. Lingvistik tahlil**
- 7. Hususiy, tematika va uslubiy kompleks**
- 8. Badiiy matn**
- 9. Asar syujeti**
- 10. Asar kompozitsiyasi**
- 11. Matnning lingvistik tahlili**
- 12. Interpretator matn**
- 13. Hermenevtika**

Insoniyat xayotini kommunikativ faoliyatsiz, ya'ni bir-birlari bilan til orqali o'zaro munosabatsiz tasavvur qilish qiyin. Shaxsning belgisi sifatida uni xarakterlovchi yoshi, jinsi, ma'lumoti, kasbi, ijtimoiy kelib chiqishi xududi, xamda millatidan qat'iy nazar, qanday bo'lmasin, biz doim, biror narsani bilishga va bilib olgan narsalarimizni asrab- avaylashga, yodda saqlab qolishga urinamiz. Boshqacha qilib aytganda til vositasida aktiv kommunikativ (aloqa) faoliyat bilan shug'illanamiz. Kommunikativ faoliyatning ayrim aspektlari yoki ko'rinishlari ko'pincha avtomatik tarzda

namoyon bo'lsa, ayrimlari maxsus o'rganish, ta'lim prosessida o'zlashtiriladi. So'z san'atiga o'rgatish, juda ko'p mutaxassislarining sa'i-xarakatlari bilan amalga oshiriladi. Shu jihatdan "Matnning lingvistik tahlili" kursining asosiy maqsadi bo'lg'uvsi filolog-o'qituvchilarni badiiy asarning mohiyatini tushunishga va undagi g'oyaviy-estetik, tarbiyaviy xamda uning o'quvchiga emotsional ta'sirini, asar zamirida yotgan eng muxim voqeliklarni anglab olishga qaratilgandir.

Badiiy nutq yozma formada nomoyon bo'ladi. Uning og'zaki ko'rinishi esa (aktyor yoki biron kimsa tomonidan o'qilgani) yozma formaga nisbatan ikkilamchi yoki bevosita xarakterga ega. Bu forma matn o'qiyotgan shaxs bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning o'zgarishi bilan u xam o'zgaradi.

Badiiy nutqning birligi yoki boshqacha qilib aytganda mezoni- bu tugal xabar ifodalovchi bir butun, badiiy jihatdan nixoyasiga yetgan asardir. Tildagi mavjud xar qanday funktsional uslub tomonidan ifoda etilayotgan xabar kabi badiiy asar matnni ham nutq aktining birin-ketin keluvchi tanlam majmuasi deb qarash mumkin. Bu esa o'z navbatida bir qator obektiv va subektiv, shaxsga aloqador bo'lgan faktorlar bilan izohlanadi. Tilga olib o'tilgan faktorlarning tasiri ko'proq ikki xil nutq doirasida, yani xar kungi og'zaki va badiiy nutqda namoyon bo'ladi. Bu ikki xil nutqning birinchisi, situasiya bilan, norasmiyligi bilan xarakterlansa, ikkinchi g'oyaviy-estetik yo'nalishi va asr xamoxangligi bilan xarakterlanadi. Badiiy ijod-bu borliqni inson tomonidan aloxida olingan maxsulidir.

Tashqi olamdan kirib kelayotgan xamma axborotni biz ma'lum ichki kechinmalar bilan qabul qilamiz va voqealarning qaytalanishi, takrorlanib kelayotganda ular o'rtasida aloqani mustaxkamlaydi, kechinmalarni bir-biriga bog'laydi. Shunday qilib, kishi ongida ichki kechinmalar va ma'lum ma'no tashuvchi axborot o'rtasida bir-biriga mutanosiblik paydo bo'ladi va ichki kechinmalar axborotning manba'iga yoki tashuvchisiga aylanadi. Ijodkor esa, ijod paytida o'zini o'rab turgan dunyoni bilishi va tushuntirishi uchun ichki kechinmalarini o'z dunyoqarashi orqali tahlil qiladi. Badiiy asar,shunday qilib-bu san'atkor, ijodkor tomonidan tanlab olingan borliqning bir qismi bo'lib va bu qismni yozuvchi tomonidan mushoxada

etilishidir. Borliqning bir qismi, "uchastkasi" sifatida uning xoxlagan tomoni olinishi mumkin. Uning tasviri badiiy asarni mavzusini tashkil qiladi.

Badiiy nutq stilistikasi ya'ni uslubi uchun muallif tomonidan ishlayotgan til vosita va to'qimalarning o'ziga xosligi, individualligini hamda ularni qay yo'sinda namoyon bo'lishi muximdir.

Matnning lingvistikasi uchun esa, matnni tashkil etuvchi kategoriyalar va ularning tarkibi hamda bu kategoriyalarni matn ichidagi o'zaro hamkorligi va ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi, matnning tipologiyasini yaratish, qolaversa, bu tipologiya ichida badiiy matnni o'rnini aniqlash kabi masalalar muximdir.

Matn tilshunoslik, tabiatshunoslik, umuman filologiya fanining tekshirish ob'ekti sanaladi. Bir matn tilshunoslik fani nuqtai-nazaridan tekshirilgan ekan, diqqat adabiy til yaruslari-leksik, fonetik, morfologik va sintaktik birliklaridan qay darajada foydalanganliklariga qaratiladi.

Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan esa matnning janr xususiyatlari shakl va mazmun syujet va kompozisiya, uslub va uslubiy vositalardan foydalangan xolda matnda davr ruxini obrazlar va til shakllari vositasida qanday aks ettirilganligi tahlil qilinadi.

Shu nuqtai nazardan matn interpretatsiyasi yoki boshqacha qilib aytganda, matnning lingvistik (filologik) tahliliga quyidagicha ta'rif berish mumkin: MLT.-bu badiiy asarning g'oyaviy-badiiy, mantiqiy va emosional informatsiyasini (Xikoya qilinayotgan va o'quvchiga yuborilayotgan xabar) ni ijodkor tomonidan mushoxada qilinayotgan borliqni bilish va tushunishdir. MLT-Germenevtika (grekcha "germeneutikos" tushuntiruvchi, izoxlovchi ma'nosida) deyilib, eng avvalo filologiyaning bu sohasi bibliya (injlil) va boshqa qadimgi matnlarni izox qilishdan boshlangan. Hozirgi paytda MLT bilan shug'ullanuvchi oqim "Yangi kritisizm (New Criticism) nomi bilan shuxrat qozongan. Til vositalarini saralash ustidan nazorat qilib borish matn tahlilining aspektlaridan biri. Ana shu aspekt asosida til birliklarini badiiy adabiyot uslubida tanlash imkoniyatlari xam xar xil bo'ladi. Turli til matnlardagi til ifoda vositalarining tanlanishi va qo'llanishidagi potensial xamda amaliy imkoniyatlarni kuzatish tekshirib

chiqish tahlilning maqsad va vazifasini belgilaydi. Maqsadi, prinsipi, va qamrov xajmi jixatidan tahlil tiplari xam xar xil bo`ladi:

Xususiyl, tematik, va uslubiy, kompleks.

Xususiyl tahlilda matnning ma'lum bir qismini yoki to`liq matn, tilning bir jixatiga yoki badiiy tasvir vositalariga yo bo`lmasa obrazlar sistemasiga e'tibor qaratiladi.

Kompleks tahlilda tilning barcha soxalariga xos birliklar va ularning konkret qo`llanishi matnning g`oyaviyl-tematik mazmuni janri va strukturasi bilan o`zaro bog`liqlikda olib o`rganiladi. Tahlil tiplariga asoslanib ish ko`ruvchi tahlil turlari xam xar xil bo`ladi. Lingvistik tahlil xam turli xil bo`ladi: A. Matnning umumiy mazmunini oydinlashtirishda til ifoda vositalarini tanlash faktorlari va ularning matn tuzilishidagi rolini aniqlash, mazmun-matnning til materiali jixatidan strukturasi belgilovchi yetakchi asos. Til ifoda vositalari: so`z, so`z shakllari, so`z birikmalari, gap tiplarining tanlanishi, qo`llanishi va uyushishini tahlil qilish nazarda tushiniladi. Masalan: Alisher Navoiyning "Farxod va Shirin" dostonini o`rganish jarayonida eskirgan so`zlar va so`z shakllariga izox berib boriladi: B. Lingvistik nazariya, til sistiemasi va tarixi faktlariga asoslangan filologik tahlil. Adabiy metod, janr, badiiy-estetik prinsiplar avtor shaxsi va uning nutqiy manerasi va boshqa matn til ifoda vositalarining tarkibi xamda ko`rinishini belgilovchi omillardir. Masalan: G`ofur G`ulom she'riyatida tarixiy so`zlarning qo`llanishi sabablarini izoxlash.

Stilistik tahlil-matndagi badiiy tasvir vositalarini izoxlash. Tasviriy vositalar har xil uslub va janrda qo`llanilib u umumtilga hamda avtorga tegishli bo`lishi mumkin. Asarda ishtirok etayotgan qahramonning nutq qurilishi tilning leksik tarkibi, uning xarakterini ochishda muhim vosita sanaladi.

Masalan: Uyg`un o`zining "Jontemir" poemasida Jontemir xarakterini chizishda badiiy tasvir vositalaridan ustalik bilan foydalanadi.

"Rang-barang chechaklar to`lg`anib,

jozibali kulib boqqandir",

"Na bulut silkitmay oltin par",

"Mo`ylov burab, jilmayib tog`lar (jonlantirish),

"Nozli bulutlar, daydi yellar,
kumush suvlar, shirin qo`shiq"(sifatlash),
"Qirchillama sho`x yigitlarday,
olmos kabi yaltirab asta,
zuluk kabi so`rib qonini"(o`xshatish)
"na ko`kning fonari o`chmasdan,
na yulduz sayr etib ko`chmasdan..."

Badiiy tahlil-matn tahlilining murakkab turlaridan bo`lib, unda xilma-xil vazifalar bajariladi. Chunki bu tahlildan kuzatiladigan maqsad asarning xususiyatlarini o`rganishdir.

Badiiy matnda kishilarning munosabatlar doirasida bir-biri bilan bog`langan kishilar xayotining ma'lum davridagi voqealari tasvirlanadi. Bu voqealarda davrning siyosiy ijtimoiy, madaniy va ahloqiy xayoti o`z aksini topadi.

Matnning adabiy tahlilida quyidagi maslalarga aloxida e'tibor berilishi lozim:

1. Badiiy matn tahlilida tasvirlangan voqelik va shu voqelikka yozuvchining munosabati aniqlanadi. Masalan: Alisher Navoiyning "Farxod va Shirin" dostonida olijanob fazilatlarini ulug`lash, adolat va xalqparvarlik, do`stlik va qaxramonlik, muxabbat erkinligi va unga sadoqati asarni g`oyaviy mazmunini tashkil qiladi. Asarda Xisrav, Yosumon kabi yovuz kuchlar bilan Farxod, Shirin, Mexinbonular o`rtasidagi kurash ko`rsatiladi. Shoir Farxod, Mexinbonu, Shirinlarning barcha xarakterlariga xayrixoxlik bildiradi. Shoxni adolatli bo`lishiga undash g`oyasini ilgari suradi.
2. Tahlilda asarning mazmuniga xam shakliga xam berish va mazmunning yetakchi rolini ta'kidlab o`tish zarur.
3. Asar tahlilida obrazlar asarning umumiy mazmuni bilan bog`liq xolda o`rganiladi.
4. Asar syujeti va kompozitsiyasini o`rganish xam adabiy tahlilning asosiy vazifasidir. Badiiy asardagi mavzu, obraz, til, kompozitsiya, muayyan g`oyani ifodalaydi. Mavzu va g`oyaning aktualligi va xalqchiligi, mazmun va shaklning o`zaro mosligi, obrazning tipikligi va xalqchiligi syujet va

kompozisiyaning pishiqligi, badiiy tilning tasviriyligi va ekspressivligi adabiy tahlil jarayonida aniqlanadi.

Matn tahlilida tahlilning yuqoridagi u yoki bu turidan foydalaniladi. Matnni sharhlash soʻz va soʻz shakllari badiiy tasvir vositlarining asar gʻoyaviy va estetik mazmunini oshirishdagi roli izoxlanadi. Matnni sharhlashda lingvistik aspekt asosiy oʻrinni egallaydi. U tradision adabiy tahlilda xam yetakchi sanaladi, chunki u matnning estetik strukturasi va badiiy tasvir vositlarini oʻrganishga koʻmaklashadi.

Tahlil tiplari va badiiy matnni lingvistik sharhlash aspektlari munosabatini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:


1. Tahlil lingvistik, stilistik va adabiy boʻladi, ular bir-biri bilan bogʻliq xolda olib boriladi.
2. Badiiy matnni lingvistik sharhlashda tahlil aspektlari tahlil, sintez xamda asarning gʻoyaviy mazmuni va poetikasini izoxlashga xizmat qiladi. Turli darajada qoʻllaniladigan til birliklarini aniqlash va tushuntirish xamda matndagi ekstralingvistik faktorlarini izoxlash tahlilining vazifasi sanaladi. Voqelikning yaxlit boʻlagi soʻzlar bilan asar kompozisiyasining oʻzaro taʼsirini aniqlash vazifasi sanaladi. Kritisizm (Practical Criticism) nomi bilan Angliyada mashxurdir.

Ozmi-koʻpmi MLT. ham adabiyotshunoslik, ham lingvistika uchun taalluqlidir. Insonni muloqot faoliyati prosessida xabar yuborilayotgan shaxsning roli beqiyosdir. Chunki har qanday badiiy boʻlmagan (ilmiy, gazetadagi maqola, rasmiy xujjat) xabardagi axborot, doim borliqni maʼlum bir boʻlagi bilan mutanosib boʻlib yoki adresat (axborotni qabul qiluvchi) larga moʻljallangan boʻladi. Axborotni qabul qiluvchilar esa maʼlum belgilarga ega boʻlib, bular qatoriga taʼlim tarbiyaviy, ijtimoiy, milliy va boshqalarni kiritish mumkin. Bu doirani tashkil qiluvchi guruh ichida aniq shaxslarni almashinishi, qabul qilinayotgan axborotni tubdan oʻzgarishiga olib kelmaydi. Badiiy axborotda esa boshqacharoq. Bunda oʻrganilayotgan obʼekt chegarasiz xisoblanib, faqat maʼlum doiradagi guruh uchun moʻljallangan boʻladi. Bunday xollarda muallif tomonidan borliqni mushoxada qilish har xil oʻquvchi uchun turlicha yaʼni qabul qilsa boʻladigan- boʻlmaydigan, tushinarli-tushinarsiz, xaqqoniy-yolgʻon, chuqur-

yuzaki Chunki har bir o`quvchi badiiy asarni o`z o`lchovi bilan mushoxada qiladi. Bunda uning bilim doirasi, borliq to`g`risidagi tushunchalari asosiy rol o`ynaydi. Shundan bo`lsa kerak muallif bilan o`quvchi o`rtasida ko`pincha kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar, bir bilan aytganda baxs boshlanadi. Bundan tashqari yuqoridagiday bir asarning talqini turli aktyorlar va rejissyorlar talqinida ham turlicha chiqadi. Bu borada Shekspirning Gamletini turli aktyorlar tomonidan ijrosini anglashni o`zi kifoya, yoki bo`lmasa Nruxon rolini. Lekin xar doim ham matnni asli bitta voqelikni aks ettirishga qaratilganligi tufayli, u o`zgarishsiz qolaveradi. Shuni xisobga olgan xolda matnga quyidagicha tarif berish mumkin: Matn kommunikativ aktini o`rtasini tashkil qilgan bo`lib, uch elementli strukturadan iboratdir uni quyidagicha tasavvur qilish mumkin:-avtor (adresant) --- Matn--- o`quvchi (adresant).

Badiiy matn murakkab va ko`p qatlamdir. Uni tahlil qilishdan maqsad- ijodkor o`ylagan ma'no va ichki kechinmalarni maksimum xolda payqab olishdir. Ijodkorni o`ylagan narsasi faqat badiiy asar orqali namoyon bo`ladi. Shu sababli ijodkor bilan o`quvchi o`rtasidagi prinsipni Varankaga o`xshatishadi, chunki uning keng og`zidan butun borliq o`tkaziladi.

Buni quyidagicha izoxlash mumkin.



Interpretator (o`quvchi, izlanuvchi, tekshiruvchi) matnni qabul qilish paytida o`z tajribasiga tayanadi va undan unumli foydalanadi. Bizni tishqi dunyoni bilishimiz va uni qabul qilishimiz doimo borliqdagi voqea va xodisalarni tanlab olishga asoslanadi. Faylasuflar, psixologlar, semiotiklar, semasiologlar allaqachon inson mavjud ob'ektlarning eng asosiy xususiyatlarini tanlab olishiga e'tiborini qaratganlar. Bu tanlab olish

prosessi, albatta ma'lum situatsiya bilan bog'liq bo'ladi va shunga qarab inson o'z baho shakllarini (bosqichlarini) belgilaydi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, umuminsoniy va shu bilan birga ijodiy fan deb qarash mumkin. Bundan tashqari MLT. Pedagogika nuqtai nazaridan ham muhimdir. Chunki insonlarning hammasi ayni paytda, ham o'quvchi, ham tahlilchidir.

Oliy o'quv yurtlari planidan joy olgan "Matn tahlili" kursi nazariy grammatika, nazariy fonetika, leksikologiya, qisman stilistika kabi filologik fanlarga o'xshabtil sistemasini muayyan nutq muxitlarida, ya'ni ma'lum bir tildagi tugal yaxlit xabarlar asosida realizatsiyaga kirishini tasvirlaydi. Tugal yaxlit matnlar muammosi bilan stilistika ham shug'ullanishi mumkin. Lekin u, ko'proq lingvistik fan sifatida, o'rganayotgan xabarlarining ifoda planini kuzatish bilan shug'ullanib, mazkur xabar qaysi vositalar orqali ifoda etilishi masalasiga asosiy e'tiborini jalb etadi. Matn tahlili stilistikadan farqli ravishda ajralib turar ekan, u o'z e'tiborini dastavval matn mazmuniga yo'naltiradi, ifoda plani ilmiy tahlili esa asar umumiy mazmunini talqin etishdek asosiy maqsadni ro'yobga chiqishida oraliq bosqich bo'libgina xizmat qiladi. Shunday qilib matn tahlili stilistika bilan izchillik xususiyatiga ko'ra asosiy konsepsiyaning birligi asosida uzviylashadi.

Izohli lug'atlarda "Interpretatsiya" so'zi ma'nosi "Talqin", "Tushintirish", "Ma'no ochib berish" deb izoxlanadi. Matn interpretatsiyasi matn zamirida yotgan mazmunni ochib berish demakdir. Binobarin, har qanday matnni o'qish, nutqni har qanday usulda eshitish (shubxasizki, kishi o'qigan yoki tinglaganini tushunsa) interpretatsiya demak, o'zi uchun interpretatsiya qilish demak. Ma'lumki matn interpretatsiyasi ma'lum darajada chuqur va to'liq bo'lishi mumkin. Ilmiy faoliyatda ham, o'quv o'quv praktikasida ham matn interpretatsiyasining asosiy vazifasiga matn asosida yotgan informatsiyani atroflicha yoritish, uning mazmunini ochib berish, shuningdek, avtor ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan matn zamirida yashiringan ta'sir kuchi mazmunini anglab yetish va bir qancha boshqa vazifalar kiradi. Bayon etilgan vazifalar mohiyatlariga tushinib yetish, faqat fanning o'zi uchun emas, balki, boshqalarga tushuntirib berish uchun muhim.

Hullas ushbu asosiy bosh vazifasi o`quvchi-talaba qo`liga tushunchalar, ilmiy kuzatish usullari tizimini tayyor holda tutqazishdan iboratki, kelajakda o`quvchi-talaba ularning yordamida mustaqil ravishda o`zi uchun yoki boshqalarni o`qitish yo`lida turli ko`rinishdagi matnlarni tahlil qila olsin va o`zgalarga tushintirib bera olsin. Odatda matn talqiniga ilmiy yondoshish va unga monand metodika yaratish zaruriyati badiiy adabiyotning xususiy alomatlariga asoslanadi. Aytishlaricha, so`z san'ati muntazam ravishda o`zgarib turuvchi semiotik sistemani, maxsus tilni aks ettirib, xar qaysi badiiy matn kitobxon bilan o`zgacha ruxda so`zlashadi; asarning g`oyaviy mazmuni uni shakllantirgan barcha elementlar murakkab kompleksida mujassamlangan; matn elementlari bir-birlari bilan o`zaro chog`ishtirish va qarama-qarshi qiyoslash asosida umumiy bog`langan birikadilar va buning oqibatida ularda qo`shimcha ma'nolar yuzaga keladi; adabiyotning "boshlang`ich elementi" badiiy obraz ko`p ma'noli va ser qirra, shuning uchun ham xar bir yangi davr ayni bir asarni o`zini o`zicha talqin etadi, interpretasiya qiladi; badiiy asar konmatnidan joy olgan umum xalq tilidagi xar bir so`z qo`shimcha ma'noning nozik alomatlarini oladilar, shu bilan birga o`z tarkibidagi uzual ma'noni ifodalabgina qolmasdan, matn ostida yashiringan ma'noni ifoda etish uchun ham xizmat qiladi.

Xar qanday nutq zamirida aytilganga ko`ra ko`proq ma'no yotadi. Adresatga yoki begona tinglovchiga yo`naltirilgan (aytilgan, bayon etilgan) xabardagi informasiya to`plami shu xabarni tashkil etgan til elementlari ma'nolari bilan tugamaydi.

Faraz qilaylikki, biz qaerdadir quyidagi dialog parchasini eshitdik yoki o`qidik:

A-мы поедem в воскресенье за город?

B-нет, у меня сел аккумулятор.

Intuitiv ravishda, xech qaysi nazariyaga suyanmasdan, faqatgina xayotiy tajriba va sog`lom fikrga asoslanib aniq ifodasini topgan xabardan tashqari quyidagi informasiyani ajratib ko`rsatishimiz mumkin:

-B ning mashinasi bor.

-B ning fikricha, A mashinada sayoxatga chiqishni nazarda tutyanti.

Barcha taxminlarga ko`ra, A va B ning xamkorlikdagi sayoxati odatdagi xol bo`lib, bu masala ilgari ham ko`tarilgan.

A va B o`rtasidagi munosabatlar, ehtimol, shu darajadagi, A shaxar chetida bo`ladigan hamkorlikdagi safarga ishonadi. Endi esa faraz qilaylikki, A-ayol kishi, B-esa erkak kishi, ular er-xotin va shu davrga qadar ular ma'lum payt bir-biridan arazlashib yurishgan. Shunisi ravshanki bunday xolatda ayolning savoli shunchaki niqoblangan yarash taklifidir, uning rad javobi esa, qat'iy emas chunki mashinadagi akkumulyator toki quvvatining kamayishi, kuchsizlanishi-erkak ixtiyoriga bog`liq bo`lmagan o`tkinchi xodisa. Xullas, xabar asosidagi eng muhim tomon to`ppadan to`g`ri ifoda etilmay balki aytilganlardan bir amallab faxmlab olinadi. Umuman ko`pincha gapning asl mazmuni uning lingvistik ma'nosiga zid tushadi yoki, yuzaki qaraganda, lingvistik ma'no bilan xech qanday umumiylikka ega emas. Fransuz lingvisti O. Dyueroning ko`rsatishicha "Kakaya xoroshaya pogoda!" (Que 1 beau temps!) Jumlasini bir xil xollarda "Ужасная погода!" boshqa paytlarda esa-"нам нечего сказать друг другу" namunalarini ifoda etadi.

Adabiyotlar.

- 1. Лингвистика текста I, II- части. «Международная конференция» М. МГППИЯ 1968г.**
- 2. Kukhareno V. A. «Seminars in style» М. 1971**
- 3. Гиндин С. И. «Внутренняя организация текста». АКД, М, 1972г**
- 4. +удратов Т, Нафасов Т. «Лингвистик тащилил» Т., «Ы=итувчи», 1984**

MA'RUZA № 2

MAVZU: BADIY ASARDAGI TIL BIRLIKLARINING O`Z O`RNIDA ISHLATILISH BOSQICHLARI.

Reja:

1. Fono-grafik va morfem bosqichlar.
2. Morfema bosqichi.

TAYANCH IBORALAR:

- 1. Fonografik bosqichlar**
- 2. Morfem bosqichlar**
- 3. Alliteratsiya**
- 4. Asosiy komponent**
- 5. Okkazional so`zlar**
- 6. O`zak morfema**

Nutq tovushlarini olimlar, o`zlarining mustaqil ma'nosiga ega bo`lmagan, bir tomonlama til birligi sifatida o`rganishadi. Fonema nazariyasining asoschilaridan biri bo`lgan N.S.Trubeskoy fonemalarning

ma'no ajratuvchi funksiyasiga katta ahamiyat bergan Darhaqiqat mustaqil ma'noga ega bo'lmagan "s" va "t" fonemalari "yes" hamda "yet" so'zlarini farqlash uchun xizmat qiladilar. O'zbek tilidan "tom" va "tor" so'zlarini misol qilib olish mumkin. Ammo Aflotun va Arastu davridan beri olimlarning diqqatini so'zlardagi jarangdorlik masalasi tortib kelgan. Tovushlarga alohida ma'no, ahamiyat berilib, jumladan "g" tovushi qandaydir bir tez, zavq-shavq bilan aytiladigan, "1"-esa bir tekis, "1"qisqa, "a"-katta kabi ma'nolarga ega bo'lgan deb ta'riflashgan. Tovushlarning takrorlanib ifoda qilish imkoniyatlari ya'ni alliterasiyasi allaqachon shoirlarga ma'lum va mashxurdir. Ko'pincha alliterasiya, anamatopvik xarakterga ega bo'ladi, ya'ni tabiiy tovush orqali o'tayotgan voqelikni aks ettiradi. Masalan: "около мелничных раздавалис слабый звуки-то капли падали с лопат сочилас вода сквоз засовы плотины" (I.S.Turgenev)-Yoki boshqa bir misol. A. Voznesenskiyning "Goyya" poemasida 30% so'zlarda "g" tovushi ishlatilgan. V. Xlebnikovning alliterasiyasida esa "l" tovushi takrorlanib kelgan: "Prishlo Zlya Lyubvi, lebedya, leleki, Lelya, lani, Laotze, Lassalya, Lunacharskogo, Libknexta". o'zlarining mustaqil ma'nolariga ega bo'lmagan taqdirda ham, tovushlar takrorlanib kelib, adresatga yo'naltirilgan xabarni estetik nuqtai-nazardan to'laqonli bo'lishini taminlaydilar va shu bilan birga tasviriy va ekspressiv funktsiya bajaradilar. Badiiy asarda so'z urg'usining ham ahamiyati katta. Jumladan so'z urg'usining o'rnini o'zgarishi bilan so'zning ma'nosi ham o'zgarib ketadi. Masalan: "Вороном" so'zidagi birinchi va uchinchi bo'g'indagi urg'u ko'chishi "Вороном" so'zining substantiv yoki ada'ektiv statusini belgilaydi. Urg'uga qarab savol bersak: "Летит как?"- "Voronom" yoki "На какой коне?"- "Вороном", (Летит на коне Вороном). Urg'u ko'pincha so'zlovchining kasb korini ham aniqlab berish mumkin. Rus tilida umumxalq tomonidan qabul qilingan normativ urg'udan tashqari yana, ma'lum guruhlar uchun xos bo'lgan professional urg'u ham mavjud. Masalan: umum tomonidan "шасси", "компас", "добыча", "кредит", "краны" iqtisodchilar "-кредит", fiziklar "атомный" tarzida talaffuz qilinib, urg'u yuqoridagi so'zlarda insonning kasb-korini ifodalovchi vosita sifatida nomoyon bo'ladi. Personajlar nutqidagi tovushlarning takrori kam xollarda uchraydi, hamda ular tasviriy funktsiya bajarmay, balki, odatda

soʻzlovchining xis-xayajonini oʻta yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.

Qiyoslang: "You, lean, long, lanky, lath of a lousy dastard "(S. O. Casey).

№ 2. MORFEMA BOSQIHI

Agar, fonema birtomonlama yani faqat ifoda planiga ega boʻlib, ma'lum sharoitlarda, qoʻshimcha axborot uzatish manbai boʻlib xizmat qilsa, tasavvur qilish mumkinki, til sistemasini keyingi pogʻonasini egallab turgan morfema, xar ikkala planga-ifoda va mazmun plani bilan xarakterlanib, matnning mohiyatini yaratishda, shubxasiz, sezilarli darajada oʻz xissasini qoʻshadi.

Morfema soʻz yasashda asosiy komponent xisoblanadi hamda flektiv tillar uchun soʻz oʻzgartirishda ham aktiv ishtirok etadi. Biz har bir til lugʻatining, eng avvalo, yangi soʻzlar hisobiga boyib borishini yaxshi bilamiz. Bu jarayon oʻz navbatida tildagi mavjud morfemalar hisobiga amalga oshiriladi. Paydo boʻlgan yangi soʻz, ya'ni neologizm-uzoq davr yashamaydi. U tezda til sistemasi ta'siriga berilib, assimilasiyaga uchraydi va yangi soʻzlik nusxasini yoʻqotadi. Bundan tashqari, ayrim kishilarning nutqida turli darajada, individual neologizmlar uchrab turadi. Bunday neologizmlar lugʻatlarda e'tirof etilmaydi, chunki ular nutq situasiyasi bilan bogʻliq boʻlib, faqat bir martagina ishlatiladi va shuning uchun ham okkazional soʻzlar deb yuritiladi. Masalan: Dikkinsda "toping and froing", "otherness" Dj. Braynda, "orangutanil" Mayakonskiyda, "the chickens-hearted man"⁴. Dikkinsda va boshqalar. Okkazional soʻzlarning paydo boʻlishida ikki sabab bor:

1. Birinchidan, morfologik-sintaktik xarakterga ega boʻlgan soʻz yasash paradigmasining toʻla emasligi boʻlsa.
2. Ikkinchidan, soʻz oʻzgartirish paradigmasining toʻla emasligidir. Morfemalarning takrorlanib kelishik-badiiy matnni informasion-estetik toʻlaqonligini belgilovchi vosita xisoblanadi. Lekin ularning struktural variantlari uchta pozisiya bilan chegaralangan: anaforik medial va epiforik,

ammo leksik takrorga nisbatan, morfem takror funksional nuqtai-nazardan doim o`zak morfemani mantiqiy jixatdan ajratib ko`rsatishga qaratilgan.

Masalan: О, рассмейтесь, смехачи!

О, засмейтесь смехачи!

Что смеются смехами , что смех явствуют смеяльно

О, засмейтесь усмеяльно!...

-"He wished she would not look at him in this new way. For things were changing, something now, this minute, just when he thought they would never change again, just when he found a way to live in that changelessness"(R. P. Warren)

Нет женщин нелюбимых-невстреченные есть» (А. Дементьев); «Все эти женщины недожили свое, недолюбили, недоревновали» (И. Грекова). "there was then a calling over of names, and great work of singing, sealing, stamping inking and sanding, with exceedingly flurred, gritty and undecipherable results" (Ch. Dickens). Morfemalarning takrorlanib kelishi gapni ritmik jixatdan muvofiqlashtirib ham keladi. Boshqacha qilib aytganda, qofiyalaydi. Bunday qofiyadoshlik ko`proq stilistik vositalardan-antitezada, parallel konstruksiyalarda va sanashda uchraydi. Masalan: "What`s done, cant be undone" (W. Shakspeare);

"Once you`ve learned a lesson, it's hard to unlearn it" (E. O'Neil);

Adabiyotlar.

- 1. Лингвистика текста I, II- части. «Международная конференция» М. МГППИЯ 1968г.**
- 2. Kukharenko V. A. «Seminars in style» М. 1971**
- 3. Гиндин С. И. «Внутренняя организация текста». АКД, М, 1972г**
- 4. +удратов Т, Нафасов Т. «Лингвистик ташлил» Т., «Ы=итувчи», 1984**

MA`RUZA № 3

MATN XUSUSIYATLARI.

Reja.

1. Matnning ta`rifi
2. Matn turlari
3. Frazalar o`rtasidagi aloqani amalga oshirishning turlari

TAYANCH IBORALAR:

- 1. Lingvistik tadqiqot**
- 2. Leksik-grammatik vositalar**
- 3. Yahlit murakkab jumla**
- 4. Takror so`zlar**
- 5. Mustaqil gaplar**
- 6. Leksik takror**
- 7. Ikki sostavli sodda yig`iq gap**
- 8. Sinonim so`zlar**
- 9. Qo`shma gaplar**

Matn-lingvistik tadqiqotning qiyin obektlaridan biri sanaladi. Shuning uchun ham hanuzgacha matnni xamma tomonidan tan olingan tarifi yo`q. Ko`pchilik olimlarning fikriga ko`ra, matn quyidagi o`ziga xos belgilari (xususiyatlari) bilan xarakterlanadi.

Birinchidan, matn-yozma shaklda bayon qilingan xabardir.

Ikkinchidan, matn,mano va strkturaviy tugallikka ega.

Uchinchidan, matnda avtorning xabar berilayotgan voqelikka munosabati ham ifodalanadi.

Sintaktik nuqtai-nazardan matn mano va leksik-grammatik vositalar yordamida bir-biri bilan bog`langan gaplar yig`indisidan iboratdir. Nutq jarayonida gaplar tematik, ham strukturaviy, ham oxang (intonasion) jixatdan birlashib, alohida sintaktik birlikni, yani yaxlit murakkab jumlani tashkil qiladi.

Yaxlit murakkab jumla (YaXJ) ga kiruvchi frazalar o`rtasidagi bog`lanishning turli usullari mavjud. Avvalo frazalar o`rtasidagi o`zini

aniqlash kerak. Bunday bogʻlanishni gaplar, yaxlit murakkab jumla, abzas, bob va matnning boshqa qismlari oʻrtasidagi tashkil qiladi. Gaplar oʻrtasidagi aloqa kommunikasiya maqsadi bilan bogʻliq boʻlib, mano jixatdan bogʻlanishi tashkil etadi.

Bu aloqa leksik-grammatik vositalar bilan ifodalanadi. Xoxlagan soʻzlarni xoxlagan paytda bir-biri bilan semantik aloqaga olmaganimizdek, alohida olingan gaplarni ham bir-biri bilan bogʻlab, bir butun matn xosil qila olmaymiz.

Masalan: Talabalar choʻmilishga ketdi. Silikatdan qilingan yelim 15 tiyin turadi. Atoqli otlar bosh xarf bilan yoziladi.

Bu gaplarni matn xosil qilish uchun bir-biriga biriktirish mushkul. Nutq jarayonida faqat bir-biriga yaqin turgan gaplar emas, balki uzoqroq, matndagi boshqa gaplar bilan ajratilgan gaplar bir-biri bilan semantik nuqtai-nazardan bogʻliq boʻladi. Bunday bogʻlanishning birinchisi -kontakt bogʻlanish deb, ikkinchisi esa -distant bogʻlanish deb ataladi.

Masalan: Pattie had been born thirty years before in an attic room in a small house in an obscure industrial town in the center of England. She had not been a welcome visitor to her mother Miss O'Driscoll. Miss O'Driscoll, who had herself arrived in the world under similar auspices, knew at least that her own father had been a pleasant in County Tyrone. Bir birlari bilan kontakt (yaqin) aloqa bilan bogʻlangan. Jumladan, birinchi gap ikkinchisi bilan kishilik olmoshi (she) bilan, ikkinchi va Yuqorida keltirilgan matn uch gapdan iborat boʻlib, ular bir- uchinchi gaplar esa atoqli otlarni takrorlanishi bilan bogʻlangan.

Takror soʻzlar bilan aloqa zanjirli aloqa deyiladi va bunday aloqa ega-ega yoki toʻldiruvchi-ega aloqasi deb ham aytiladi.

Distant yoki oraliq masofadagi aloqa esa gaplar tarkibidagi fe'llar bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Frazalar oʻrtasidagi aloqalarni amalga oshirishning 2 turi mavjud.

1) Birinchisi -mustaqil gaplarni ham, qoʻshma gaplarni ham bogʻlash uchun xizmat qiladigan umumiy aloqa vrsitalari. Bularga bogʻlovchilar, yuklamalar, kirish soʻz va fe'l orqali ifodalanayotgan zamon formalarini, qolaversa, olmosh hamda sinonim soʻzlarni kiritish mumkin.

2) Ikkinchisiga faqat mustaqil gaplarni bog`lash uchun xizmat qiladigan aloqa vositalari, ya'ni, leksik takror, ikki sostavli sodda yig`iq gap, ayrim so`roq, undov gaplar kiradi.

Bog`lovchilarning aloqa vositasi sifatidagi umumiy funksiyasi mustaqil gaplar o`rtasidagi munosabatlarni aniqlashdan iboratdir.

Masalan: Шофер остановился в раздуме. А через минуту он уже спал за баранкой: долгая дорога его утомила. ---- Mustaqil gaplarni bog`lash uchun xizmat qiluvchi vositalar orasida bo`lishidan qat'i-nazar uchinchi yoki to`rtinchi gap oldingi gaplar bilan olmoshlar orqali bog`lanadi.

Masalan: I know. My College scarf. I am rather fond of it really. It will symbolize the lovely new life without maths (p.on 67).

Keltirilgan misolda birinchi gap bilan ikkinchi gap egalik olmoshi "my" bilan, ikkinchi va uchinchi gaplar esa "it" olmoshi bilan sintaksik aloqaga kiryaптиу.

Gaplar yoki frazalararo aloqa vositasi vazifasida boshqa olmoshlar ham ishlatilishi mumkin. Jumladan, ko`rsatish olmoshlari: bu, это (эта, этот, эти), this, that kabilar, na faqat ikki gapni, balki yaxlit murakkab jumladan, matn boblarini bir-biriga bog`lash uchun xizmat qiladi. Masalan: Bu voqea Qo`qonda bo`lgan edi; Bu qo`lyozmalar, bu nodir asarlar ...

Adabiyotlar.

- 1. Лингвистика текста I, II- части. «Международная конференция» М. МГППИЯ 1968г.**
- 2. Kukhareno V. A. «Seminars in style» М. 1971**
- 3. Гиндин С. И. «Внутренняя организация текста». АКД, М, 1972г**
- 4. +удратов Т, Нафасов Т. «Лингвистик ташлил» Т., «Ы=итувчи», 1984**

MA'RUZA № 4

MAVZU: MATN TASHKIL QILUVCHI KOMPONENTLAR.

Reja.

1. Yaxlit murakkab jumla nima?
2. Matnni uzviy bog'lovchi vositalar-kogerentlik va kogeziya-zanjir so'zlar.
2. Matnning ma'no yaxlitligi.
3. Yaxlit murakkab jumla. Uning strukturasi va chegarasi.

TAYANCH IBORALAR:

- 1. Kogerentlik va kogeziya**
- 2. Zanjir so'lar**
- 3. Sintagmatik plan**
- 4. Funktsional plan**
- 5. Matn kogerentligi**
- 6. Yig'iq umumiy ma'no**
- 7. Gazeta matni**
- 8. Referentlik hususiyati**

Misollar o'rtasidagi fikr olishish, aloqa, muloqot yaxlit murakkab jumla asosida amalga oshadi. Yaxlit murakkab jumla matnning aloxida ko'rishini bo'lib mustaqil gaplar guruhidan tashkil topadi. Mustaqil gaplarning muayan guruhga ajralish o'z navbatida umumiy mazmun birligi butunligini yaratadi. Mazmun butunligi ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi uchun tugal fikr anglatadi. Aynan fikr tugalligi yaxlit murakkab jumlaning aloxida olingan gapdan farqlovchi mezon xisoblanadi. Shuni aytish kerak-ki aloxida olingan gapning ko'rinishi sub'ekt- predikat, nominativ, kognitiv va kommunikativ kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirsada nisbatan tugal fikr anglatmaydi. Uning fikr butunligi yaxlit murakkab jumla tarkibida shakllanadi. Boshqa murakkab gaplarning bir qator ko'rinishlari bilan xamkorlikda yaxlit mazmun yaratadi. Mustaqil gaplar o'rtasidagi hamkorlik o'zaro mazmun va sintaktik jixatdan uzviy bog'lanish jarayonida namoyon bo'ladi. Demak, mazmuni sintaktik jixatdan o'zaro uzviy bog'langan

aloxida olingan gapga nisbatan tugal fikr anglatuvchi, mustaqil gaplar guruhi yaxlit murakkab jumlaning tashkil etadi.

Misol: Xaydarqulxonning ikkita qaroli bor edi. _____ Biri o'n beshta, ikkinchisi o'n ikkita Xaydarqulxon xar _____

_____ biriga yiliga o'ttiz so'mdan xaq to'lardi. Bolalar boyning mollarini

_____ boqishar, mollar daladan to'yib qaytishsa, boy ikkoviga bittadan butun non berardi.

_____ Agarda birortasining qorni to'ymay qolsa, "ishing yarimta bo'пти" deb yarimtdan non berardi.

Qarollar Madamin va Yoqubjon isimli aka-ukalar edi.

_____ (Erkin Malikov.O`qilmagan saxifalar).

Gap ham yaxlit murakkab jumla ham sintagmatik planga mansub bo'lib muayyan qurilish modellari va ularning nutqda ifodalanishini nazarda tutadi. Shunga ko'ra ularning xar ikkisi ham til va nutq birligi xisoblanadi. Yaxlit murakkab jumla termini xususiyatiga ko'ra mustaqil gaplar birikmasidan tashkil topgan gaplar guruhiga nisbatan sintagmatik va funksional yondoshishni nazarda tutadi.

Sintagmatik planda mustaqil gaplar birikmasi maxsus tartiblashtirilgan gaplar zanjirini aks ettiradi. Funksional planda bu birikma keng, yoyiq, tugal fikr ifodasini aks ettiradi. Shunday qilib yaxlit murakkab jumla (mikro matn) ayni paytda ham sintagmatik, ham funksional tushunchadir. Bu-maxsus tartibga solingan umumiy bir fikr anglatuvchi gaplarning tutash zanjiri. Matn yaxlitligi, qismlari o'rtasidagi o'zaro uzviy bog'lanish hozirgi zamon tilshunosligida matn kogerentligi nomi bilan yaratiladi. Bu termin yuritiladi. Bu termin lotin tilidagi "coharens-bog'langan, o'zaro tutash" so'zidan olingan. Yaxlitlik yana molekulyar fizika termini bo'lmish "Kogeziya" orqali ham ifodalanadi. Kogeziya - molekulalarning jismda ulanishi. Matn yaxlitligi, bo'laklarning uzviy ulanishi yaxlit murakkab jumla bilan bir qatorda to'liq nutqiy asarga ham xosdir.

Biroq yaxlit murakkab jumla miqyosidagi matn kogerentligi yanada yaqqol ko`zga tashlanadi.

Matn kogerentligi strukturaviy, ma'no va kommunikativ yaxlitlik asosida namoyon bo`ladi. Yaxlitlikning har uchchala ko`rinishi shakl, mazmun va ifoda birikmasini tashkil qiladi.

4. MATN MA`NO YAXLITLIGI. MAVZU TUSHUNCHASI.

Matn ma'nosi yaxlitligi uning mavzu birligida aks etadi. Mavzu asosida mujassamlashgan umumiy matn mazmuni yetadi. Mavzu- yadro-mazmun.

To`liq nutqiy asar mavzusi bilan (xususiy mavzular) alohida boblar, paragraflar, murakkab sintetik butunliklarning xususiy mavzulari o`rtasida faqat bilvosita aloqa mavjud. To`liq nutqiy asar temasi xususiy temalar arifmetik yig`indisi emas. Bu narsa badiiy adabiyot janrida yaqqol ko`zga tashlanadi. Ma'lumki, badiiy asar asosiy g`oyasi bevosita yozuvchi tomonidan bayon etilmasdan, faqat obrazlar sistemasi orqali inson xayoti yo`lining aniq tomonlari vositasida kitobxonga yetkaziladi. Shubxasiz, tabiat tasviri, inson tashqi qiyofasi tasviri, asar qaxramonlari xayoti yoki ichki kechinmalari haqidagi hikoyalar yig`indisi asar boblari, bo`laklari, yaxlit murakkab jummalari sifatida hech qachon to`liq nutqiy asar g`oyaviy tematik mazmuniga tenglashtirilmaydi.

Xuddi shuningdek alohida boblarda, paragraflarda, abzaslarda, yaxlit murakkab jummalarda o`z aksini topgan xususiy temalar mexanik yig`indisi yirik publisistik asar yoki ilmiy ishning asosiy g`oyasini keltirib chiqarmaydi.

Yaxlit murakkab jumla asosidagi tema mayda xususiy tema hisoblanadi. Uning tarkibidagi mustaqil gaplar bir-birini mazmunan o`zaro to`latib umumiy hamkorlikda muayyan bir tema xosil etadilar. Alohida olingan mustaqil gap tema yarata olmaydi. Xolbuki uning tematik yo`nalishi yaxlit murakkab jumla tarkibida shakllanadi. Bu o`rinda quyidagi yaxlit murakkab jumlaning misol qilib keltirish mumkin.

1.U keldi. 2. Yana doimgidek eshik ostonasida devorga suyanganicha Sitorani chiqishini kutdi. 3. Bu galgi uchrashuvi qanday kecharkin. 4. Qiz

chiqishi bilan shoshilib xol-axvol so`radi. 5. Uzoq vaqt yo`q bo`lib ketgani uchun uzr so`radi. 6. Toshkentda nima ishlar qilib yurgani haqida ozgina so`zlab berdi. 7. Qisqacha suhbatdan so`ng qizning vaqtini ko`p olmaslik uchun noiloh xayrlashib chiqib ketdi.

Yuqoridagi yaxlit murakkab jumla 7 mustaqil gapdan iborat bo`lib yagona mavzuni aks ettiradi. Unda mujassamlashgan yirik umumiy ma'no "Uchrashuv"dir. Umumiy yadro mazmun mustaqil gaplarning mazmuni va sintaktik jihatdan o`zaro uzviy tutashish orqasida bog`lanishi asosida yuzaga keladi. Gaplar o`rtasidagi bog`lanish zanjiri o`z ifodasini shakllanuvchi "u" tushunchasini ifodalovchi "keldi", "ketdi", "so`radi", "so`zlab berdi", "chiqib ketdi" so`zlari orasida o`z aksini topadi.

Yana bir xuddi shunday misol keltirish mumkin;

1. Xat yozdim.
2. Xat o`tgan galdagi singari oddiy.
3. Bir akaning singilga yozadigan xati edi.
4. Do`ppi uchun raxmat aytdim.
5. a. Bu yil otpuska vaqtida borolmasligimni aytdim.
6. o`zim ham qarindosh-urug`larni, ayniqsa Yodgorni sog`inganligimni aytdim.
7. So`z oxirida tez-tez xat yozib turishini iltimos qildim.

Ushbu yaxlit murakkab jumla 7(6) mustaqilgapdan iborat bo`lib, yagona temani aks ettiradi. Unda mujassamlashgan yig`iq umumiy ma'no "Xat"dir. Umumiy yadro mazmun mustaqil gaplarning mazmunan va sintaktik jihatdan o`zaro uzviy tutashish o`rtasida bog`lanishi asosida yuzaga keladi. Gaplar o`rtasidagi bog`lanish zanjiri o`z ifodasini takrorlanuvchi "Xat" so`zi hamda "men" tushunchasi ifodalovchi "yozdim", "aytdim", "bildirdim", "o`zim", "iltimos qildim" so`zlari orasida o`z aksini topadi.

Yaxlit murakkab jumla tarkibidagi takrorlanib keluvchi so`zlar mustaqil gaplarni bir-biriga bog`lovchi zanjir so`zlar bo`lib ilmiy adabiyotlarda rekkurent so`zlar (muntazam takrorlanuvchi so`zlar) deb

yuritiladi. Yanada oydinlik kiritish uchun quyidagi inglizcha yaxlit murakkab jumlaning olishimiz mumkin.

1. In New York there are a lot of good hotels.
2. Still if you do not want to get disappointed it is advisable to book accomodation before hand by telephone or cable particularly if you are visiting the City in summer.
3. In that case you won't have to leave the hotel because is no room which is always an unpleasant experience especially if you arrive late at night.

Bu jumlada esa uchta mustaqil gap bo'lib gaplar o'rtasidagi bog'lanish zanjiri o'z ifodasini takrorlanuvchi "hotel" va "you" tushunchasini ifodalovchi "there are", "do", "are visiting", "won't have to leave" so'zlari orasida o'z aksini topadi. Xullas, yaxlit murakkab jumla bir temali xususiyatga ega. Yaxlit murakkab jumlaning tashkil etgan gaplarni shu tema atrofida mujassamlanishi matn ma'no yaxlitligini yoki matn semantik izotopiyasini aks ettiradi. Bir jumladan ikkinchisiga o'tish, bir yaxlit murakkab jumladan ikkinchisiga utishni bildiradi. Shubxasiz, matn yaxlitligi o'z aksini muntazam takrorlanuvchi zanjir so'zlarda yoki rekkurentli nominasiyalarda topadi. Zanjir so'zlar rekkurentligi ularning so'zma-so'z takrorida, tematik yaqin bo'lgan so'zlar yoki sinonimlar ifodasida hamda pronominalizasiya asosida namoyon bo'ladi. Ushbu hollarning barchasida tema birligi yaxlit murakkab jumla tarkibidagi zanjir so'zlar referensiyasining o'xshashligini ta'min etadi. Boshqacha qilib aytganda, atoqli, turdosh otlar, olmoshlar va boshqalar yaxlit murakkab jumla doirasida yagona predmet yoki real borliqning elementi bilan bog'langan bo'ladi va shu asosda umumiy o'xshashlik xususiyatiga ega bo'ladi. Har safar bir yaxlit murakkab jumla doirasida yagona tema ichida qo'llanuvchi bir atoqli yoki turdosh otning o'zi hamda uning leksik sinonimlari yoki uni almashtirib kelgan olmoshlar bir predmetning o'zini yoki shaxsni nazarda tutadi. Misol uchun quyidagi gazeta matnini qiyoslab ko'rish mumkin:

Saida kamolova.

1. Saida Kamolova Shimoliy Kavkaz frontidagi janglarda sanitar-instruktor bo'lib qatnashdi.

2. U xizmat qilayotgan diviziya gazetasida o`zbek halqining frontdagi jangchilarga qarata yozilgan xati bosilgan bo`lib, unda Vatanimiz tuprog`iga bostirib kirgan dushmanni tezroq yakson qilishga da'vat qilingan edi.
3. Bu da'vatga javoban u o`nlab yarador jangchilarga birinchi yordam ko`rsatib, ularning xayotini saqlab qoldi.
4. O`zi ham dushmanga qarshi mardlarcha jang qildi.
5. S. Kamolova "Jasurligi uchun" medali bilan mukofotlandi.

(1. Saida Kamolova. 2. U. 3. o`zi 4. Uning 5. S. Kamolova).

Ushbu yaxlit murakkab jumla tarkibidagi rekurrent zanjir elementlar (atoqli ot, uni almashtirib kelgan olmoshlarning ko`rinishlari) bir tushuncha "Saida Kamolova" bilan butun birikma davomida bog`lanadilar. Ular yagona referent "Saida Kamolova" tushunchasi bilan matnni turli joyida bog`langandir. Zanjir lementlarning yagona o`xshash referent bilan bog`liqligi tema birligini yaratadi. o`xshash referentlik xususiyati bilan bir qatorda implikasiya hodisasi ham tema birligini, butunligini yaratishda ishtirok etadi. Bu xodisa situativ aloqalar hamda bo`lakning butunicha bo`lgan munosabatlarida aks etadi. Misol uchun "Sohil bo`yida" yaxlit murakkab jumladagi "soxil" va "suvdan chiqayotgan ayol", "sigara", "tutashtirmoq", "chekmoq", "portsigar" kabi nominasiyalar asosida situativ aloqa, bog`lanish yotadi.

Misol uchun: "Cho`l xavosi injiqligi"

Mehnat ham egiz, mashaqqat ham, deganlardek ertasi kuni cho`lquvarlar yana bir behalovat kunni o`tkazishdi.

1. Osmon tund edi. 2. Allaqaerdan qattiq shamol turdi-yu, guzarlarni chapparasta to`zg`itib, yomg`ir tomchilay boshladi. 3. Kun o`tmay, yomg`ir jalaga aylandi. 4. Durkin nihollari moviy dengiz mavjlaridek to`lqinlanib turgan dalalardan bir zumda fayz ko`tarildi. 5. G`o`zalar shalpayib qoldi: biri yerga yopishgan, biri do`l urgan...

(N.Mirzaev. Cho`lquvar bo`lish qiyin.)

Tabiatda sodir bo`ladigan obi-havo yuzaga keltirgan cho`lquvarlar behalovat kunini umumiy tushuncha "cho`l havosi injiqligi" ostida yig`iq mujassam xolatga keltirish mumkin.

Xuddi shu xolat uchun ingliz tilida quyidagi misolni keltirish mumkin;

Frank Swain

1. Doctor Caswell took the information with his usual professional calm from his patient who was named Frank Swain.
2. The old gentleman was in pretty good health for a man of seventy.
3. But it was necessary to keep him from bying things.
4. His financial transaction always ended in failure, which was bad for his health.
5. But the old man hated it when somebody interfered in his affairs and ordered him to do things. (Text reading newspapaers listening to the radio). Bu yaxlit murakkab jumlada ham atoqli ot o`rnini olmoshlar bilan (va) ot so`z turkumiga mansub bo`lgan (The old gentleman) va (the old) so`zlari almashtirilgan yaxlit murakkab jumlada Frank Swain ning xolati, uning yoshi, kasbiy munosabatlari, savdo ishini omadsizlikka uchrashi bilan sog`ligini yo`qotganligi va yana uni bir xarakterli xususiyati ya'ni kishilarning uning ishlariga aralashishlari va buyruq berishlarini yoqtirmasligi ham yoritib berilgan.

Adabiyotlar.

1. **Лингвистика текста I, II- части. «Международная конференция» М. МГППИЯ 1968г.**
2. **Kukhareno V. A. «Seminars in style» М. 1971**
3. **Гиндин С. И. «Внутренняя организация текста». АКД, М, 1972г**
4. **+удратов Т, Нафасов Т. «Лингвистик тащлил» Т., «Ы=итувчи», 1984**

MA`RUZA № 5

MAVZU: YAXLIT MURAKKAB JUMLALARNING ASOSIY FUNKSIONAL TURLARI.

Reja.

1. Hikoya yahlit murakkab jumla
2. Tasviriy yahlit murakkab jumla
3. Muhokama yahlit murakkab jumla

TAYANCH IBORALAR:

1. Tasviriy yahlit murakkab jumla
2. Tasviriy hikoya, muhokama
3. Peyzajli yahlit murakkab jumla
4. Hikoya yahlit murakkab jumla
5. Muhokama yahlit murakkab jumla
6. Dialogik birlik

7. Nutq formasi

8. Artikllarning tanlanishi

9. Referent o`hshashlik

Yaxlit murakkab jumlar nutqdagi vazifasiga ko`ra uchga ajraladi: Tasviriy, hikoya, muhokama. Tasviriy yaxlit murakkab jumla tabiat xodisalari, predmetlar, shaxslar va boshqalarning xarakterli xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Xarakterizasiya berilayotgan predmetlar xususiyatlariga binoan yaxlit murakkab (xarakat o`rni tasviri), portret xarakteristikasi (ishtirokchilar tasviri), va boshqalarga bo`linadi.

Tasviriy yaxlit murakkab jumla ko`rinishlarni elementlar farqlab turadi. Peyzajli yaxlit murakkab jumlar tarkibida ko`proq qir, adir, dala, o`tloq, o`rmon,.. va boshqalar hamda yonida, oldida, ortida, tepada, pastda borliq (makon) ma'nosidagi so`zlar qo`llaniladi.

Misol: Xovuz bo`yida bir umr shamol tegmaydigan va jilg`adan bahra oladigan besh-olti tup yam-yashil, ko`rkam eman bor edi, quyuq barglari esa xovuzga soya solib turardi, nihoyat, xovuz atrofidagi yumshoq barra o`tlar o`z og`ushiga da'vat etardiki, bunday yotoqni 10 mil atrofidagi biror oshxonadan topib bo`lmasdi. U odam otlarning kishnashidan uyg`ondida, ot yoniga bordi. U o`rta bo`yli yigit bo`lib, lekin ko`rinishdan baquvvat, ko`zlari viqor bilan qayg`uli boqardi. Bir mahallarda ko`rkam bo`lgan chehrasi oftobda sochidan ham qorayib ketgandi. (P.Merime. Karmen.)

Birinchi yaxlit murakkab jumla tabiat manzarasi tasviri-peyzajli jumla hisoblanadi. Ikkinchisi esa portretli yaxlit murakkab jumla bo`lib, inson tashqi qiyofasini tasvirlashda xizmat qiladi.

Xikoya-yaxlit murakkab jumla.

Xikoya-yaxlit murakkab jumla tasvirlanayotgan voqealarni muntazam ko`rinishda tasvirlaydi. Asosiy rejaga harakatning ro`yobga chiqish tartibi chiqadi. Xar bir yaxlit murakkab jumla odatda muayyan bosqich, xarakat rivojlanish jarayonini, matn syujetining yechimini ifoda etadi.

Maxsus otryad.

"Urush yillari bolalar- g`alabaga!" operatsiyasi e'lon qilinishi bilan ma'lumotlar to'play boshladim. Men sizlarga yozayotgan bu voqeani otamdan eshitdim. 1942 yilning yoz oylari. Kuybishev nomli kolxoz bog'laridagi mevalarning xosili pul bo'ldi. hamma paxta dalasida mehnat qilayotganidan mevalarni o'z vaqtida uzvolishga ulgurishmasdi. Shunda kashshoflardan iborat maxsus otryad tuzildi. Ular orasida Xursand Toirova, Mehri Mamadalieva kabi qizlar bo'lgan.

Terib olingan o'riklar quritilib, jiyda, yong'oqlar bilan birga frontga jo'natilgan. Otryad bir kunda 200kgdan 400kggacha yig'ishi kerak bo'lgan. Otryad a'zolari xar qanday qiyinchilik bo'lsa ham normani ortig'i bilan bajarishardi. Chunki ular terib jo'natayotgan mevalar front jangchilariga madad bo'lishini yaxshi bilishardi. Men endi X'ursand Toirova, Karomat Toirova, Mehri Mamadalievalarning urushdan keyingi hayotini o'rganayapman.

Muhokama -yaxlit murakkab jumla.

Ushbu tipdagi yaxlit murakkab jumla tarkibida 3 xil qism ajratiladi: a) tezis, v) isbot (argument) va xulosa (umumlashtirish)

Bayon etilayotgan yaxlit murakkab jumla tarkibida ko'pincha 1-chidan, 2-chidan, umuman, xullas, demak, shunday qilib, nihoyat kabi kirish modal so'zlar va ayrim ergash bog'lovchilar (chunki, agar) ko'rsatiladi.

Mehnat-qudrat demakdir. Inson hayotini bezaydigan, unga baxt-saodat keltiradigan, boylik, farovonlik baxsh etadigan yagona kuch mehnatdir.

Odam bolasining umri bitta-bittadan g'isht terib ko'tarilgan binoga o'xshab ketadi. Binoning mustahkam turishi, uzoq umr ko'rishi, ishlatilgan materialning sifatidan tashqari, poydevorning yaxshi-yomonligiga bog'liqdir. Metin poydevorga o'rnatilgan bino qanchalik mustahkam bo'lsa, yoshlikdanoq biror hunar yoki kasb etagidan mahkam ushlab olgan yigit-qizlarimiz hayotda o'sha xashamatli bino kabi savlat to'kib o'tishadi. Ammo inson savlatli xar qanday bino hashamatidan baland. Chunki u xashamati bilan ko'zlarni qamashtiruvchi ko'p qavatli binolarnigina emas, fazoga uchirilayotgan mo'jiza kemalarni ham yaratuvchi, ijod qiluvchi, sayqal, bezak beruvchi aqlli, irodali kuchdir. Faqat inson ana shunday aqlli,

irodali kuch darajasiga ko'tarilish uchun mehnat qozonida rosa qaynab, biron xunar yoki ixtisos egasi bo'lmog'i lozim.

Mehnat bilan yashab, xayotni mehnat bilan yashnatib kelayotgan odamlarni hurmat qilish, ularni boshga ko'tarish, xordiqclarini, ma'naviy huzur-xalovatlarini o'ylash odamiylikning eng birinchi shartlaridandir. Faraz etaylik, siz xovlingizga bir tup daraxt yoki gul ekdingiz. U tutdi, yaproq chiqardi, chiroyli bo'lib o'sdi, tanasi yo'g'on tortdi, shohlari yashil barglarga burkandi. Ekkan ko'chatingiz yaproq chiqarish bilan bir vaqtda, shubxasiz, ildiz ham otdi. Yaproqlar quyoshdan nur, havodan azot olib ildizlarga xayot berdi. Ildizlar esa yordam olib o'zakni, yaproqlarni boqdi. Bir vaqt qarabsizki, xayot barq urib turgan chiroyli bir o'simlik xosil bo'libdi. Siz unga qarab zavqlanasiz, havasingiz keladi. Bordi-yu, sizda g'urur uyg'otib o'sayotgan ana shu chiroyli o'simlik shohlarini birov kelib kallikladi, ildizlarini qirqib tashladi. Xo'sh, nima bo'ladi? Endi xavodan, oziqdan mahrum bo'lgan yolg'iz tana quriydi. Demak, o'simlikning yashashi, ya'ni sizni bizda xavas, zavq uyg'otgan, ko'rkamligini saqlab qolish uchun yaproqlar ham, ildizlar ham, xayotiy ahamiyatga ega ekan.

Dialogik birlik. Turli nutq formalarining ko'rinishlari.

Yaxlit murakkab jumla tarkibida badiiy asarlar va boshqa funksional stillarga mansub matnlardagi avtor so'zlari bilan bir qatorda yozma va og'zaki ko'rinishdagi dialog, avtor so'zlari bilan adabiy asar qaxramonlari so'zlarining birlashmasi, turli Funksional uslublardagi avtor so'zi va "begona" nutq o'z aksini topadi.

Dialogik birlik yoki savol-javob birligi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, chiziqli zanjir bog'lanish ko'rinishi kasb etgan monologik nutqdan o'zgaruvchanligi bilan farq qiladi. Bu o'zgaruvchanlik suhbatdoshlarning navbat bilan so'zlashishida o'z aksini topadi. Savol-javob birliklarda ta'sir va ko'zg'alistning bog'liqligi, suxbatning savol-javob birligidagi sinsemantema, yaxlit intonasiya ko'rinishi va boshqalar dialogik nutqning farqlovchi vositalari hisoblanadi. Savol-javob so'zlashish suhbat formasidagi dialog ma'no yaxlitligi uning ma'no butunligida va maxsus

sinsemantik ko`rinishda aks etadi. Savol gap ham, javob gap ham bir-biridan alohida olingan fikr ifodasi sifatida qo`llanilmaydi. So`zlashishning savol formasi to`la fikr ifodasi bo`la olmaydi. U suhbatdoshlarning biri tomonidan aytilgan ta'sir bo`lib, to`la fikr ifodasini amalga oshishiga ta'sir etadi. So`zlashishning javob formasi ham mustaqil ma'no kasb etmaydi. Barcha universal savollar uchun javob tasdiq yoki inkor formalarida bo`ladi. "xa", "shunday", "yoki", "yo`q", "bunday emas", "unday emas" javoblari savol formalarini bilan birgalikda to`liq ma'no va tugallik ko`rinishiga ega bo`ladi.

Misol: - "Xo`ja Ma'oz" ga borgan edim.

-Nima uchun?

-Tunashga.

(A.Qodiriy. "O`tgan kunlar").

Dialogik nutqda yaxlit murakkab jumla alohida ko`rinish kasb etadi. Gap ko`rinishida bo`lishiga qaramasdan, savol-so`zlashish formasi kommunikativ shakllanishida u bir necha muhim funktsiya bajaradi.

1. Kommunikatsiyani yuzaga keltiruvchi ta'sir;
2. Kommunikativ oldi tayyorgarligi kuchlanishi, kommunikatsiyani kutish;
3. Kommunikatsiya temasiga asos soladi., tema-rema yadro ma'nosining aktualizatsiyasi uchun xizmat qiladi.

Umum qo`llanishdagi tasdiq yoki inkor formalarining o`zlari tema yoki remani to`la aks ettirmay, balki savol replikasi asosida tasdiqqa yoki inkorga aylanib o`sha mazmuni aktualizatsiyalashtiradi.

-Xay yaxshi, meni uchrashuvga taklif qilgani keldilaringmi?-so`radi ota.

-Yo`q, -dedi Qamara o`zini tutib olib. -Bizni bog`imizni buzishmoqchi.

-Shunaqami, bog`laring qaerda?

-Teshikqopqoqda.

-E, Zebinoning qizlarimisizlar?

-Xa,-deyishdi uchchala qiz baravariga.

-Bog`laring buzilmasinmi?

-Buzilmasin.

(E.Malikov. "O`qilmagan sahifalar").

Umuman olganda dialogda quyidagi xarakterli xususiyatlar ajratiladi:

- A) Alternativ zanjir.
- B) Suhbatdoshlar soʻzlashish formasining almashib turishi.
- V) "Savol-javob" birligida "ta'sir-koʻzgʻalish" mavjudligi.
- G) Savol-javob birligida sinsemantiya xodisasi mavjudligi.
- D) Savol-javob birligining intonasion koʻrinishi.
- E) Savol-javob birligida tashqi bogʻlovchi vositalarning mavjudligi.
- Yo) Savol-javob birligida yagona tematik yadroning mavjudligi.

6. Matnning strukturaviy butunligi.

Yaxlit murakkab jumla tarkibiga mansub boʻlgan gaplar oʻzaro faqatgina tema birligi va kommunikativ xarakat munosabati bilan bogʻlanib qolmay, balki turli tashqi belgilar boʻyicha ham bogʻlangan boʻlib, bu belgilar bir butunning qismlari hisoblanadi va ularning yigʻindisi struktura birligini hosil qiladi.

Olmoshlar, olmoshli ravishlar, artikllarning tanlanishi, zamonlarning qoʻllanishi va koʻpgina boshqa gaplar orasidagi strukturaviy bogʻlanishlarning belgilari vazifasini oʻtaydi. Barcha bu xodisalar alohida ajratib olingan gaplarni kuzatish jarayonida oʻzining toʻla-toʻkis tahlilini topmaydi. Ularning ifodalanishi toʻla xolda yaxlit murakkab jumla va butun bir matn doirasida ochib beriladi. Ular yaxlit murakkab jumla xosil etuvchi gaplar orasidagi chap tomonlama va oʻng tomonlama bogʻlanishlarning tiklashda aktiv ishtirok etadilar, shu tariqa, ular matn xosil etish vazifasini bajaradilar.

Misol:

Komila shitirlagan ovozdan choʻchib tushdi. U koʻylagida chuvalashib, orqasiga tisarildida, nima qilarini bilmay, dovdirab qoldi, Uning boʻgʻzida nolami, yo sevinchli nidomi, xullas, shunga oʻxshash bir narsa tiqilib qoldi.

(A.Bikchentoeva. "Qorasoy")

Komila orol tomonga, daryoning chuqur joyiga qarab suza boshladi. U chalqancha yotib, oyoqlari bilan suvni sachrata-sachrata, yengil suzardi.
(A.Bikchintoeva. "Qorasoy")

Xar qaysi gap tutash va tugal birlik bo`la olmaydi struktura jihatdan, chunki unda chap tomonlama bog`lanishga ishora qiluvchi belgilar(ya'ni, ilgari aytilgan ishora, anafora deb ataluvchi xodisa) mavjud bo`lib, ular yaxlit murakkab jumla tarkibidagina ma'noga ega bo`ladi. Gaplarning nomustaqillik alomatlari qatoriga olmoshlar bilan birgalikda plyuskvamperfetlar zamonini qo`llanilishini kiritish mumkin. Ayni paytda anaforik bog`lanish gaplarning ma'no hamda struktura jihatdan nomustaqilligini ko`rsatadi va ular yaxlit murakkab jumlaning o`rtasida, tugal qismida joylashadilar. o`ng tomonlama bog`lanishi belgisi bo`lib kataforik bog`lanish (katafora-bo`lajak voqelikka ishora) xizmat qiladi. Katafora yaxlit murakkab jumlaning bosh qismida va o`rtasida joylashgan gaplarning ma'no va struktura jihatdan nomustaqilligini bildiradi. Ko`p xollarda oldindan sanash prosessida qo`llanuvchi sonlar kataforaning belgilari hisoblanadi. Matn lingvistikasi sohasidagi ilmiy izlanishlarda anaforik va kataforik bog`lanish usullari masalasi yetarli darajada to`la ishlangan.

Yaxlit murakkab jumlaning mazmun va kommunikativ butunligi tashqi ifodasi uning strukturaviy butunligida ko`rinadi. Shuning uchun, matn butunligining tematik, kommunikativ va strukturaviy ko`rinishlarini tasvirlash jarayonida turli tomonlaridan ko`zga tashlangan bir xil xodisalarga duch kelamiz. Jumladan, matn kalit so`zlarining muntazam takrori, sinonimik almashish va perifraza, implikasiya xodisasi asosida yotgan yaqin ma'noli matn kalit kalit so`zlarning birga kelishi ayni paytda yaxlit murakkab jumlagga mansub bo`lgan gaplar o`rtasidagi bog`lanishning tashqi(formal) ko`rinishi hisoblanadi.

Muntazam takror, anafora, referent o`xshashligi gaplar o`rtasidagi bog`lanishning o`ta grammatikalashgan ko`rinishlari hisoblanadi.

Adabiyotlar.

- 1. Лингвистика текста I, II- части. «Международная конференция» М. МГППИЯ 1968г.**
- 2. Kukhareno V. A. «Seminars in style» М. 1971**
- 3. Гиндин С. И. «Внутренняя организация текста». АКД, М, 1972г**

4. +удратов Т, Нафасов Т. «Лингвистик тащлил» Т., «Ы=итувчи»,
1984

MA`RUZA № 6

MAVZU: GAPLARNING PRAGMATIK ASSIMMETRIYASI.

Reja:

1. Nutq birliklari
2. Pragmatika nima?
3. Gapning pragmatik mazmuni
4. Simmetrik va assimetrik munosabatlar

TAYANCH IBORALAR:

1. **Gaplarning pragmatik assimetriyasi**
2. **Kommunikatsiya jarayoni**
3. **Kommunikativ maqsad**
4. **Simmetrik munosabat**
5. **Pragmatik ma`no**
6. **Kommunikativ transformatsiya**
7. **Assimetrik gaplar**
8. **Kommunikativ paradigma**
9. **Gaplarning ifoda ko`lami**
10. **Assimetriya xodisasi**
11. **Takroriy nominatsiya**

Nutq birliklarining muhim ko`rinishlaridan biri bo`lmish gap, semiotik nuqtai-nazaridan sintaktik, semantik, pragmatik xususiyatlarini o`zida mujassamlashtirgan. 1) mazkur xususiyatlarning nazariy planda aspektlarga ajralishi, ulardagi muayyan farqli alomatlarining barqarorligidan dalolat beradi. Ayniqsa, bu o`rinda gapning pragmatik xususiyati kommunikasiya jarayonida alohida o`rin tutadi. 2) Chunki u nutq kommunikativ intensiyasi zahirida o`z aksini topadi.

Umumiy maqsadni ro`yobga chiqishini ko`zlab aytilgan fikr kommunikativ intensiyani tashkil etadi.

Odatda, inson nutq faoliyati ijtimoiy xayotdagi uning barcha faoliyatlari kabi, muayyan maqsad sari yo`naltirilgan. U bayon etayotgan fikr ma'lum maqsadni nazarda tutadi: o`z tuyg`ularini, munosabatini

tinglovchiga bildirish, shuningdek, suhbatdoshni ma'lum kommunikativ xarakterga qo'zg'ash, unga ta'sir eish oqibatida uni navbatdagi nutq jarayoniga tortish va x.k.

Shubhasiz, ma'lum fikr ifodasi uchun xizmat qiluvchi gap asosida so'zlovchining ko'zlagan maqsadi, muddaosi yashiringan.

Demak, so'zlovchi xar bir aytgan gapni ma'lum bir maqsad bilan bog'laydi-ku, u kommunikatsiyada shu gapning pragmatik mazmuni sifatida shakllanadi.

Misollar:

Mo'min -kel endi, og'ayni, qo'lni och, fотиha qilaylik.

Abdusalom -Yo'q, yo'q. Mening qizim Moskov degan shaharga borib doktor bo'lib qaytgan. ha, xar oyda yuz so'lkavoyni qo'yningizga jaraqlatib soladi.

Mo'min -Xa, bizning o'g'limiz-chi, Nodirjon, muhbir bo'lib she'r yozadi. Dasta-dasta kitoblari chiqadi.

Abdusalom -Menga xo'roz bo'lsin, tuxum qilsin. Oladigan gapidan gapir. Mo'min -Oladigani, har qalay, yamoqchidan kam bo'lmasa kerak.

Abdusalom -Kiyovto'raning topganlari yamoqchinikidan kam bo'lmaydigan bo'lsa, muhbir degani yamoqchiday bir gap ekan-da.

(E.Vohidov. "Oltin devor")

Kommunikasiya jarayonida gap o'z aksini topgan so'zlovchining kommunikativ maqsadi mazmuni shu gapning denotativ, semantik, lingvistik mazmuni bilan mos tushishi yoxud mos tushmasligi mumkin. Birinchi xolat gap kommunikativ maqsadi bilan semantikasi o'rtasidagi simmetrik munosabatni aks ettirsa, ikkinchi xolat asimmetrik munosabatni nomoyon etadi.

Simmetrik munosabat pragmatik ma'no ifodasining ilmiy kommunikativ planida kuzatiladi:

Xurinisho -Nima dedi?

Mo'min -Uf, yo'q deyapti.

(E.Voxidov. "Oltin devor")

-Sanang -buyurdi polkovnik

(X.To`xtaboev. "Sariq devni minib")

Abdusalom -Qani, omin tup qo`yib palak yozishsin, qo`sha-qarishsin.
Biz ham ko`rib yuraylik.

(E.Voxidov. "Oltin devor")

Asimmetrik munosabat asosida gap semantikasi bilan pragmatikasi o`rtasidagi farq ko`zga tashlanadi. Xususan, asimmetrik munosabat turli denotativ ma'noli gaplarni bir kommunikativ maqsad bilan bog`lanishidan yuzaga keladi. Bu o`rinda bir pragmatik yo`nalishdagi turli denotativ ma'noli quyidagi gaplarni qiyoslab ko`rishimiz mumkin: "Eshikni yoping.", "Eshikni yopsangiz.", "Eshikni yopasiz-mi?", "Eshikni yoparmikansiz." "Eshik ochiq qoldi." "Eshikni yopishni unutmang.", "Qo`lingiz orqangizga yetadimi?", "Shamol kirib ketdi-ku.", "Eshik yopildi-mi, o`zi?", "Eshik yopil Yuqorida bayon etilgan til faktlarining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari simmetrik va assimetrik ko`rinishdagigaplar turini ajratish imkonini beradi. Assimetrik gaplar aosida xar bir til sistemasi ifoda vositalarining imkoniyat ko`lami yetadi. o`zbek tilida assimetrik ifoda vositalari nutqdagi funksional kuchining kommunikativ mantiqiy, stilistik transformasiyalari yo`nalishida shakllanadi.

Kommunikativ transformasiya fikr ifodasining xabar qilish, so`rash, buyurish, tilak bildirish kabi umumkommunikativ ko`rinishlari asosida kuzatilishi mumkin. Nominasiya nuqtai nazardan "xabar qilish" fikr ifodasi darak gap orqali shakllanadi. Xuddi shuningdek, fikr ifodasining "so`rash", "buyurish", "tilak bildirish", kabi ko`rinishlari so`roq, buyruq, optativ undov gaplar orqali nominalizasiyalashadilar. Binobarin, kommunikativ transformasiya gaplarning funksional turlari doirasida o`ziga xos usulda sodir bo`ladi. Garchand, kommunikativ planda darak gap tinglovchini ma'lum voqeadan xabardor etish vazifasini nazarda tutsa-da, uni boshqa maqsadlar bilan bog`langanini ko`rishimiz mumkin: buyruq, topshiriq, maslaxat, iltimos, ogoxlantirish, g`amxo`rlik, tashvish, g`azab, do`q va xokolar.

Qiyoslang:

Keyin Salimjon akam:

-Roziq, sen Xoshimga yordam berasan, ish o`rgatasan, kerak bo`lsa, xonani ichidan berkitib olib remen bilan yumshoq joyiga savlab ham qo`lasan. Bugundan e`tiboran OBXSSbo`limining shtatsiz boshlig`isan. Xozir rayon ijroiya komitetiga borib tasdiqdan o`tib kelasan, seni o`rtoq Umarov kutayapti -dedi.

(X.To`xtaboev. "Sariq devning o`limi").

Saidmalik -Abdusalom aka, yashiringan joyingiz yaxshi. Lekin yana ham extiyotkor bo`lish kerak. (E.Voxidov. "Oltin devor").

Qilichbek -Ikkinchisi shuki, yana bir soatdan keyin xo`jain kelar ekanlar. Zarur gaplari bo ekan. hech qayoqqa ketmay turar ekansiz. (E.Voxidov. "Oltin devor").

-Xoshim, meni tabriklasang bo`ladi. Juda katta ishni ochib keldim.

(X.To`xtaboev. "Sariq devning o`limi"). Aynan shunday maqsad mazmuni so`roq gaplar pragmatik ma'nosi sifatida aks etishi mumkin. Bu o`rinda kommunikativ transformasiya so`roq gaplarni buyruq gaplar qatoriga funksional ko`chishida kuzatiladi.

Misollar:

-Kechirasizlar, shu atrofda bir milisioner uylanayotgan edi, to`yxonani topolmay turibman, ko`rsatib qo`ya olmaysizlarmi?-deb so`radi.

(X.To`xtaboev. "Sariq devning o`limi").

-Xo`kizday yigit karavotning poyasigacha oyog`ingni tashlab yotgani uyalmasanmi?

(X.To`xtaboev. "Sariq devning o`limi")

-Dadanga achinmasanmi? Bir o`zi qaysi biriga ulgirsin?

(X.To`xtaboev. "Sairq devning o`limi").

Funksional ko`chish nutq turlarinig xususiy ko`rinishlari (konstativ, reprezentativ, direktiv, komissiv, ekspressiv, performativ, va X.K.) orasida sodir bo`lishi mumkin. Bu o`rinda konstativ va performativ nutq turlari o`rtasidagi ko`chishni misol qilib olish mumkin.

-Yozib beraman. U nomard meni sotibdi: endi men ham ochib tashlayman hammasini.

(X.To`xtaboev. "Sariq devning o`limi").

-Mana, endi, men o`sha bizni bezovta qilgan milisiya bilan gaplashib qo`yaman.

(X.To`xtaboev. X.To`xtaboev. "Sariq devning o`limi").

Saidmalik -Mana, Abdusalom aka, ikki ming.

Abdusalom -Ikki ming?

Saidmalik -Bu xamir uchidan patir. Tillalaringizni hammasini sotib olaman.

(E.Vohidov. "Oltin devor").

Pragmatik yo`nalishdagi simmetrik va asimmetrik ifoda vositalari paradigmasini shakllantiradi. Bu o`rinda quyidagi misollarni keltirish kifoyadir:

"Xoshim aka, aslida siz qiziqchilik uchun tug`ilgan ekansiz..."-deb qo`ydi.

(X.To`xtaboev. "Sariq devning o`limi").

-Sizning ham hech jiddiy gapirgan vaqtingiz bo`ladimi?

(X.To`xtayuoev. "Sariq devni minib").

Abdusalom -Shu, bitta tilla tish qo`ydirmoqchiman.

Saidmalik -Tilla tish? o`zlarigami? Obbo qo`shni-ey. Tuya hammomni orzu qilibdida.

(E.Vohidov. "Oltin devor").

Saidmalik -Men sizni xalol, diyonatli kishi deb yurardim. Odamning olasi ichida bo`larkan. Shuncha yil qo`shni bo`lib bilmabman-a.

(E.Vohidov "Oltin devor").

Shubhasiz, til kommunikativ variantligining boyishida takroriy nominasiya salmoqli o`rin tutadi. Shuni alohida etirof etish lozimki, kommunikativ asimmetriya xodisasi pragmatik sinonimiya, omonimiya, polisemiya kabi til qudrati, boyligini belgilovchi omillarni shakllanishiga ta'sir etadi. Albatta, bu o`rinda nutq birliklarining predmetli hamda kommunikativ situasiyalar bilan munosabatlari ham yetakchi o`rin tutadi.

Shunday qilib yuqorida bayon etilganlardan quyidagicha xulosaga kelish mumkin: Nutq birligining muhim ko`rinishi-gap. U farqli xususiyatlarining serqirraligi bilan ajralib turadi, muayyan ilmiy taxlil planlarida aspektlashadi. Sintaktik, semantik, pragmatik.

Kommunikasiya jarayonida so`zlovchining maqsadi gaplar tarkibida o`z aksini topadi. Kommunikasiya maqsadi bilan bog`langan gaplar

mazmun planida denotativ ma'no bilan bir qatorda pragmatik mazmun birligi o'z aksini topadi. Gap mazmun planida denotativ va pragmatik ma'nolarning uyg'unlashuvi, umumlashuvi, monand tushishi, to'g'ri ifoda vositalari-simmetrik gaplarni shakllantiradi. Ular mos kelmay, kontrastlashsa, u holda ko'chma qo'llanishdagi ifoda vositalari-asimmetrik gaplar yuzaga keladi. Ko'chma funksiyada qo'llanadigan asimmetrik gaplarning nutqda shakllanishiga o'zbek til funksional normasi bilan uzviy bog'langan quyidagi faktorlar ta'sir etadi: Kommunikativ, mantiqiy, stilistik transformasiya.

Kommunikativ transformasiya umum plandagi hamda nutq turlarining xususiy ko'rinishlari asosida funksional ko'chishlarda namoyon bo'ladi.

Pragmatik plandagi asimmetrik gaplar o'zbek tili ifoda qudratini belgilovchi kommunikativ paradigmadan joy oladi. Predmetli va kommunikativ situasialar, kommunikativ intensiyaning lokutiv, illokutiv, perlokutiv ko'rinishlari asimmetrik gaplarning ifoda ko'lamini ochib berishda tarkibiy mabalar xisoblanadi.

Xullas, gaplarning ifoda ko'lamini bilan bog'liq bo'lgan asimmetriya xodisasi pragmatik planda maxsus ilmiy kuzatish mavzusi sifatida keng miqyosdagi ilmiy taxlilini taqazo etadi.

Un soir iui lit: -Croiras- tu que je n^{ai} jamais ete Folies Bergere?
Veux tu m^u mener? -Te Lezita, daws la crainte de recontrer Rachel.

Adabiyotlar.

- 1. Лингвистика текста I, II- части. «Международная конференция» М. МГППИЯ 1968г.**
- 2. Kukhareno V. A. «Seminars in style» М. 1971**
- 3. Гиндин С. И. «Внутренняя организация текста». АКД, М, 1972г**
- 4. +удратов Т, Нафасов Т. «Лингвистик ташлил» Т., «Ы=итувчи», 1984**

MA'RUZA № 7

MAVZU: LEKSIK TAKROR VA GAPDA NUTQNING AKTUAL BO`LINISHI.

Reja:

1. So`z takrorining turlari
2. Gapning tema-rematik bo`linishi
3. Sinonimlarning almashib kelishi

TAYANCH IBORALAR:

1. **Leksik takror**
2. **Badiiy asar matni**
3. **Personaj**
4. **Til iboralari**

So`zlarning matn ichida takrorlanib, frazalar aro bog`lanish vositasi sifatida ishlatilishi leksik takror deyiladi. Nutqning tushinarli, mantiqiy nuqtai-nazardan birin-ketin kelayotgan so`zlar so`zlovchining tilagini tinglovchiga keng ko`lamda yetkazilishini xisobga olib biz ko`pincha so`z takroridan, boshqacha qilib aytganda nutqning aktual bo`laklarga ajratishdan foydalanamiz. Odatda har qanday gap orqali ikki xil axborot jo`natiladi. Gapning birinchi qismida avvalgi matndan yoki vaziyatdan ma'lum bo`lgan xabar yetkazadi. Ikkinchisi esa muloqotning maqsadini ochib beruvchi yangi xabarda o`z aksini topadi. Aktual bo`linishning mohiyati shundan iboratki, u nutqning kommunikativ yo`nalishini aniqlashga yordam beradi hamda yangi xabar (axborot) matnning semantik yadrosini tashkil qilishini ko`rsatadi. Undan tashqari aktual bo`linish fikr xarakterning aniqdan noaniqqa, nutq jarayonida bir fikrdan ikkinchi bir fikrga o`tishga imkon beradi. Qolaversa, gaplarning muloqot paytida to`g`ri bog`lanishiga katta yordam beradi.

SO`Z TAKRORINING TURLARI.

So`z tarorining eng muqobil ko`rinishi -yondosh fraza va gaplarda bir so`zning yoki so`z birikmasining qaytarilib, ya'ni takrorlanib kelishidir.

Misol:

1. Variant: "Жил на селе одинокий старик. Старик был слаб и нуждался в постоянном . Ухаживат за ним было некому"
2. Variant : «Жил на селе одинокий старик. Одинокий он был потому, что жена его была убита фашистской бомбой в первое дни Войны, и дети не вернулись с фронта»
3. Variant: "Жил на селе одинокий старик. На селе он жил с первого дня своего рождения."
4. Variant: "Жил одинокий старик. Жил он не много немало, а 83года, жил он и плохо и хорошо по – всякому бывало"

Yuqorida keltirilgan misollardan ko`rinib turibdiki, har bir variantning o`z oldiga qo`ygan kommunikativ maqsadi yo`nalishi mavjud.

" They were not themselves tempted.."

" They lived indeed the strictly ordered life which Muriel imposed and

...

An early age...

Sinonimlarning almashinishi gaplararo aloqani amalga oshirish vositali sifatida.

(ikkilamchi nominatsiya)

Leksik takrorning o`rniga sinonim so`zlarning almashinib kelishi ham mumkin. Masalan: V. G. Qorolenqonning "Bez yazo`ka" nomli povestida asar qaxramoni Matvey Lozinskiy gox, Matvey, goh Lozinskiy, gox ko`z ko`rmagan kiyim kiygan baxaybat odam, gox paxmoq odam kabi nomlar bilan ataladi. Xar bir nutq iborasi shaxsning yangi-yangi xislatlarni ochib, birinchidan matn qismlarining bog`lovchi vosita bo`lib kelsa, ikkinchidan personaj fe'l-atvorini ifodalovchi vazifa bajaradi.

Badiiy asar matnida aksariyat-xolatlarda atoqli otlar takrorlanib keladi. Shuning uchun u yoki bu personaj qanday xislatlar soxibi bo`lishi mumkin degan savol tug`ilishi tabiiy. Ana shu savolga javob berish uchun matndan personajni tasniflagan til iboralarini topish kerak. Masalan: Mirzo

Xoband, Baxromxon To`raning "Saodat" jurnalida bosilgan "Farg`ona sanamlari" maqolasidagi "Xon Oyim, Xon Poshsha Oyim," nomi bilan mashhur bo`lgan Umarxonning xotini; Qurbonjon dodxoh (general), "Oloy malikasi", "Oloy viloyat xokimi", baland bo`yli go`zal ayol "Bilimdon vatanparvar onaxon" bo`lgan Alimqul sarkardaning xotinini va "sanam", "Oq bilak oyim", "Xon oyim" atamalarini ifodalovchi mien fazl Axad Soxibzoda ismli kishining xotini bo`lgan Roziya bibilarni ikkilamchi nominasiya orqali ifodalanishni fikrimizning dalili sifatida keltirish mumkin.

Adabiyotlar.

- 1. Лингвистика текста I, II- части. «Международная конференция» М. МГППИЯ 1968г.**
- 2. Kukhareenko V. A. «Seminars in style» М. 1971**
- 3. Гиндин С. И. «Внутренняя организация текста». АКД, М, 1972г**
- 4. +удратов Т, Нафасов Т. «Лингвистик тащдил» Т., «Ы=итувчи», 1984**

© Stylistica